

SINTAKTIK SATHDA TILNING USLUBIY-IFODAVIY VOSITALARI

Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna
Samarqand Davlat Chet tillar instituti
Lingvistika (ingliz tili) yoʻnalishi boʻyicha
2-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya. Oʻzbekiston Respublikasida oliy taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlar madaniyatlar oʻrtasidagi muloqot vositasi boʻlgan til taʼlimi va tadqiqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, til taʼlimi va tadqiqi boʻyicha tilshunoslik sohasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida sintaktik sathdagi uslubiy-ifodaviy vositalarni ilmiy nuqtai nazardan oʻrganish bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan til muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz tili sintaksisi doirasida uchraydigan uslubiy-ifodaviy vositalarning stilistik va kommunikativ vazifalari chuqur tahlil etilgan va maʼlum qonun qoidalar asosida guruhlariga boʻlib oʻrganish raklif etilgan.

Annotation. Nowadays in the Republic of Uzbekistan a significant attention is dedicated to the learning of foreign languages. It is well-known that learning a foreign language opens a wide range of opportunities in development and intercultural communication. The given scientific article analyzes various stylistic devices on syntactic level and at the same time suggests the classification of stylistic devices on syntactic level according to functioning principles in Modern Linguistics.

Kalit soʻzlar: Sintaksis, ifodaviylik, maʼno oʻttenkalari, gap strukturasi oʻzgarishi, uslubiy-ifodaviy vositalar.

Nutqning ifodaviyligini oshirishda til foydalanuvchilari nafaqat kerakli soʻz qoʻllash, balki gapning sintaktik qurilishini oʻzgartirish usullaridan ham foydalanadilar. Maʼlumki, sintaksisning asosiy birligi gap boʻlib, bu birlik tilshunoslikning turli jabhalarida turlicha taʼrif etiladi. Gaplar biror mavzu doirasida asosiy yoki qoʻshimcha maʼlumotni aks ettirib, bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishib, natijada sintaktik-stilistik paradigmalarni tashkil qiladi. Anʼanaviy ravishda ingliz tilida uchragan gaplar ega+kesim+aniqlovchi+toʻldiruvchi+hol ketma-ketligidagi strukturaga egadir. Har qanday yuqoridagi strukturadan bir oz boʻlsa-da farq qilgan gaplarni gap boshlangʻich modelining transformalari sifatida qabul qilamiz. Soʻroq va inkor gaplardagi gap tartibining oʻzgarishi biz boshlangʻich modelning transformasi sifatida taʼkidlamaymiz. Zero, ingliz tili grammatik qoidalariga asoslanib, taʼkidlash kerakki, soʻroq va inkor gap tuzilishi gap strukturasi oʻzgarishi bilan bogʻliq ravishda amalga oshadi. Ammo tasdiq darak gaplar strukturasi oʻzgarishi esa uslubiy jihatdan markerlangan modellarning hosil boʻlishiga olib keladi. Sintaktik

sathdagi ifodaviy-uslubiy vositalar o‘z ichiga mantiqiy va ifodaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘zida mantiqiy va ifodaviy ma’lumotni mujassam etgan sintaktik gap modellarini oladi. Sintaktik sathda kuzatilgan ifodaviy va uslubiy vositalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Boshlang‘ich modelning reduksiyasi (qisqarishi)ga asoslangan ifodaviy vositalar;
2. Boshlang‘ich modelning ekspansiyasi (kengayishi)ga asoslangan ifodaviy vositalar;
3. Boshlang‘ich model komponentlarining ketma-ket tartibi o‘zgarishiga asoslangan uslubiy vositalar [4, 204-206].

Boshlang‘ich model komponentlarining reduksiyasiga asoslangan ifodaviy vositalarga:

- Ellipsis;
- Aposiopezis (turli maqsadlarda fikrni tugatmaslik);
- Nominativ gaplar;
- Bog‘lovchisiz gaplar (asindeton) kiradi.

Boshlang‘ich model komponentlarining ekspansiyasiga asoslangan ifodaviy vositalarga:

- Takrorlash;
- Uyushiq bo‘laklarni ishlatish;
- Emfatik konstruksiyalar;
- “Do” – “qilmoq” fe’li yordamida shakllangan emfatik konstruksiyalar;
- Tavitologiya (bir fikrni, mazmuni boshqa so‘z yoki so‘zlar bilan takroran ortiqcha ishlatish)
- Kiritma gaplar kiradi.

Boshlang‘ich model komponentlarining tartibini o‘zgartirish bilan bog‘liq ifodaviy vositalarga:

- Inversiya;
- Distantlik;
- Ajratilgan bo‘laklar kiradi.

Sintaktik strukturalarning o‘zaro munosabatlari xarakteriga ko‘ra, shuningdek, mazkur strukturalarning ma’no-mazmuni ifodalanish usuliga ko‘ra, sintaktik sathda quyidagi uslubiy vositalar mavjud:

1. Berilgan kontekstdagi sintaktik qurilmalarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra parallelism, anafora, epifora;
2. Kontekstdagi sintaktik qurilmalar mano-mazmuni transpozitsiyasi usuliga ko‘ra ritorik so‘roq gap;
3. Sintaktik qurilmalarning bog‘lanishining transpozitsiyasiga ko‘ra partsellatsiya, tobe bog‘lanish va teng bog‘lanish.

Diqqatimizni ellipsis hodisasining uslubiy-ifodaviy potensialiga qaratamiz. Elliptik gaplar strukturasi xilma-xil bo‘lib, ulardan foydalanish maqsadlari ham turlichadir. Elliptik gaplardan, asosan, uch xil uslubiy doirada foydalaniladi:

- A) So‘zlashuv uslubi doirasida og‘zaki dialogik nutqda;
- B) Ilmiy-ommabop uslubi doirasida ilmiy va rasmiy nutqda;
- C) Badiiy uslub doirasida badiiy nutqda. [31,110-103]

Berilgan har bir uslubda ishlatiladigan elliptik gaplarning xususiyati shundaki, ularning strukturasi qisqaligi, va shu bilan birga, har bir eksplitsit ravishda namoyon bo‘lgan gap elementining semantik-stilistik qiymati oshib borishidadir. To‘liq gaplarning har bir bo‘lagi teng miqdorda ma‘lumotni o‘zida mujassam etadi. Elliptik gaplarda esa, gap bo‘laklari o‘zida aks ettiruvchi ma‘lumot qayta taqsimlanib, gapda formal aks etgan elementlar yashirin tarzda anglashilgan elementlarda mujassam bo‘lgan ma‘lumotlarni ham o‘zida namoyon qiladi.

Og‘zaki nutq jarayonida so‘zlovchilar og‘zaki nutq shart-sharoitlaridan kelib chiqib, elliptik konstruksiyalardan foydalanadilar. Chunki og‘zaki nutq o‘z tempining tezligi, ishlatilayotgan gaplarning qisqaligi, nutqning beixtiyorligi bilan xarakterlanadi. Gapdagi tushirib qoldirilgan bo‘laklarning ma‘nosi paralingvistik vositalar bilan bir qatorda nutqiy yoki situativ kontekstdan kelib chiqib anglashiladi. Misol uchun:

Augustos: Hullo. Who are you?

The clerk: The staff.

Augustos: You the staff. What do you mean? Where are others?

The clerk: At the front. (B. Shaw)

Elliptik gaplardan so‘zlashuv uslubidan tashqari, ilmiy nashrlarda, xususan, turli o‘quv qo‘llanmalarida, lug‘atlarda, rasmiy hujjatlarda ham foydalaniladi. Bunda elliptik gaplardan foydalanishning asosiy maqsadi – gapning qisqaligini ta‘minlash va gapdagi eng muhim deb hisoblangan bo‘lakni mantiqan ajratib ko‘rsatishdir.

Boshqacha qilib aytganda, og‘zaki nutqda, shuningdek, ilmiy-ommabop nashrlarda ishlatiladigan elliptik gaplarda stilistik ma‘no tushlari kuzatilmaydi, bunday doiralarda elliptik gaplardan keng foydalanish, allaqachon til normasiga aylangan.

Elliptik gaplar aynan badiiy uslubdagi matnlarda o‘z ifodaviy ta‘siriga ega bo‘ladilar. Badiiy asar muallifi elliptik gaplardan o‘z asarida reallik atmosferasini yaratish, qahramonlar dialoglariga familiarlik (yaqindan tanish) tusini berish, qahramonlarning emotsional holatini tasvirlash maqsadida foydalanadi. Misol uchun:

Andrew spoke out what we all knew: “Matty’s never touch cutter-hand-les again. Too much to expect. A pity. They were a good set of lads. Took a pride in their work, and that’s rare now. Broken up now. Finished.” (S. Chaplin)

I mean the other guys and myself. In somebody else’s room. (J. Salinger)

It would be a good idea to bring along one of the Doc’s new capsules. Could have gone into a drugstore and asked for a glass of water and take one. (D. Carter)

Bundan tashqari, ellipsisni dinamik tasvirlash vositasi sifatida ishlatish mumkin:

Then came rows of houses with little vane surmounted masts upbearing themselves from among the scarlet beams. Then ditches. Then pollard willows. Then more ditches... (Ch. Dickens)

Sintaktik sathdagi keying uslubiy-ifodaviy vosita sifatida aposiopezis (inglizcha “aposiopezis” – “qisqa to‘xtash”, “to‘xtatish” so‘zlaridan olingan) – gapning to‘satdan to‘xtatilishi, tugatilishi hodisasini ham tahlil etish zarur. Gapdagi aposiopezis so‘zlovchida to‘satdan paydo bo‘lgan emotsionallik, suhbatni davom ettirishga ishtiyoq so‘nishi, yoki so‘zlovchining biror xabarni ifodalashga jur‘atining yetmayotganligi natijasida namoyon bo‘ladi. Asosan, aposiopezis og‘zaki nutqda keng foydalaniladi. Gapni bunday holda to‘xtatish, asosan, so‘zlovchining to‘satdan emotsional holga tushishi bilan bog‘liq bo‘lib, hech qanday pragmatik maqsadni ko‘zlamaydi. Ammo, adabiyotda shunday misollar ham borki, muallif o‘z asarida aposiopezisdan foydalanib, gapga yashirin ma’no, tahdid, yoki va’da kabi ma’no tuslarini qo‘shish maqsadida, uslubiy – ifodaviy vosita sifatida foydalanadi:

1. I do apologise, Madam, I feel so [...] I would not have troubled [...] (S. Hill)

2. Something like despair ravaged the heart of his watching Fleur. If she let him for winf-ridl. But surely no – her father, her house, her dog, her friendsa, her-her collection of-of – she would not – could not give them up. (J. Galsworthy)

Aposiopezisdan uslubiy-ifodaviy vosita sifatida nafaqat badiiy asarlarda, balki musiqada, kinematografiyada ham ishlatiladi. Bunda muallif o‘z asarining mantiqiy nihoyasini taqdim etmasdan, tinglovchi va tomoshabinga mustaqil xulosa chiqarishlariga imkoniyat yaratadi.

Sintaktik sathda gap komponentlarining reduksiyasiga asoslangan uslubiy-ifodaviy vositalardan yana biri – nominativ gaplardir. Yuqoridagi bo‘limda elliptik va nominativ gaplarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil etgan bo‘lsak, quyida nominativ gaplarning uslubiy vazifalarini kashf etamiz.

Tilshunoslikda nominativ gaplarning bir necha turi mavjud bo‘lib, ularning stilistik funksiyalari ularning turi va qanday kontekstda ishlatilishiga bog‘liq. Muallifning voqea-hodisa joyini yoki vaqtini tasvirlashda ham asosan nominativ gaplar foydalaniladi:

Saturday noon. Baby Hohenbaum was eating green grapes. (Armstrong)

The Posters’ one-room flat in a large Midland house. Early evening (J. Osborne)

O‘zaro ketma-ketlikda joylashgan kengaygan nominativ gaplar esa ulkan ifodaviy ta’sirga egadir:

An evening by Randipole Billy. Green lily sky, orange flames over the West Long flat clouds like copper angles with brass hair floating on the curls of the fire. (J. Cary)

Kordinativ bog‘liqlikka ega nominativ gaplardan dinamik tasvir vositasi sifatida foydalaniladi:

The day passed on. Noon, afternoon, evening. Sunset. (J. Galsworthy)

Nominativ undov gaplar ham ahamiyatli uslubiy vosita hisoblanadi.

Sintaktik sathdagi yana bir keng qo‘llaniladigan uslubiy vosita – asindeton, ya’ni gap elementlarining bog‘lovchi ishtirokisiz bog‘lanishi hisoblanadi. Gap elementlari orasidagi bog‘liqlik ritmik-melodik vositalar orqali namoyon bo‘lsa, yozma nutqda esa tinish belgilar orqali aks etadi. Asindeton frazaning ifodaviyligini oshirishi bilan she’riyatda ham keng qo‘llaniladi:

Fathers, mothers, uncles, cousins,

Cocking tails and pricking whiskers,

Families by ten and dozens,

Brothers, sisters, husbands, wives,

Followed the Piper for their lives. (R. Browning)

Har bir uyushiq bo‘lakdan oldin keladigan bog‘lovchini tushirib qoldirish gapga o‘ziga xos ma’noviy va emotsional otenkani berishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich model komponentlarining reduksiyasi stilistik ahamiyatga ega gaplarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Reduksiyaga nafaqat gap komponentlari, balki qo‘shma gap tarkibidagi tobe gaplarni bog‘lashda foydalaniladigan bog‘lovchilar ham uchrashi mumkin.

Sintaktik sathda namoyon bo‘luvchi ifodaviy-uslubiy vositalarning ikkinchi guruhi boshlang‘ich model elementlarining ekspansiyasiga asoslanib, asosan, ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: gap tarkibini kengaytirish yoki murakkablashtirish. Gap tarkibini kengaytirishda gap komponentlarini takroran ishlatish, uyushiq bo‘laklardan foydalanish orqali hosil bo‘lsa, gap tartibini murakkablashtirish qo‘shimcha gap elementlarini qo‘shish evaziga amalga oshadi.

Ular orasidan gap komponentini takroriy ishlatish (inglizcha “repetition” – takrorlash) – bevosita gap tarkibidagi ma’lum so‘z yoki so‘z birikmasining takroriy ravishda ishlatilishiga aytiladi. O‘z strukturaviy tuzilishiga ko‘ra bir necha turdagi takroriy konstruksiyalarni ajratish mumkin:

a) oddiy kontakt takrorlash sintaktik frazaologiyadan o‘rin olgan “hours and hours”, “millions and millions”, “miles and miles” singari birliklar vositasida namoyon bo‘ladi.

The city had laid miles and miles of streets, and sewers through the region (R. Aldington)

She could see roof upon roof upon third storey upon third storey of the houses on the rising hill. (O’Hara)

Uch karra takrorlash esa emotsional-semantik tonallikni ajratib ko‘rsatadi:

She was screaming high, a shrill scream that rose in the air incisively like a gull’s shriek. “Put it back, put it back, put it back!”, the scream seemed to say. (W. Sansom)

b) kengaygan takrorlash – qo‘shimcha vositalar yordamida nutq birligini takroran ishlatish bo‘lib, gap mazmunini aniqlashtirish, kengaytirish vazifasini bajaradi.

I don’t think Art heard. Pain, even slight pain, tends to isolate. Pain, such as he had to suffer, cuts the last links with society. (S. Chaplin)

c) xalqali takrorlash – gapning boshi va gapning oxirida aynan bir gap komponentini takroran ishlatish usuli.

Nothing never happened in that little town, left behind by the advance of civilization, nothing. (S. Maugham).

d) Bog‘langan takrorlash – bir gap oxirida ishlatilgan gap elementi, keying gap boshida takrorlanib kelishi bilan bog‘liq sintaktik-uslubiy vosita.

Poirot was shaken; shaken and embittered. (A. Christie)

Supposing father had wanted to say something – something private to them (K. Mansfield).

e) Bir necha bog‘langan takrorlarning birgalikda ishlatilishi zanjirli takroni yuzaga chiqaradi:

A smile would come into Mr. Pickwick face. Smile extended into laugh, the laugh into roar, and the roar became general. (Ch. Dickens)

Sintaktik uslubiy-ifodaviy vosita bo‘lib sanalgan takrorlash vositasi deyarli barcha uslubiy doiralarda keng ishlatiladi: publitsistik uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub.

Enumeratsiya (inglizcha “enumeration” – “donalab sanash”) - gap bo‘laklarini kengaytirishga oid sintaktik jarayon bo‘lib, ma’lum bir gap bo‘lagiga xuddi shunday sintaktik maqomga ega birliklarni qo‘shishni taqazo etadi. Uyushiq bo‘laklarning stilistik funksiyalari xilma-xildir. Uyushiq bo‘laklar gap ma’nosini kuchaytirishga ta’sir qiladi:

Door-knobs, keyholes, fireirons, window-catches were polished; metal which I had no idea existed flashed with life. (V. Pritchett)

Shuningdek, uyushiq bo‘laklardan voqealarni subyektiv baholash vositasi sifatida foydalaniladi. Parallel strukturali uyushiq bo‘laklar ham muhim ifodaviy ta’sirga ega:

There was a great deal of confusion and laughter and noise, the noise of orders and counter-orders, of knives and forks, of corks and glass-stoppers. (J. Joyce)

Sintaktik tautologiya – gu gap tarkibida grammatik nuqtai nazardan sinonimik birliklarning takrorlanishidir. Sintaktik uslubiy-ifodaviy vosita sifatida tautologiyadan, asosan, og‘zaki nutq jarayonida, ma’noni kuchaytirish maqsadida foydalaniladi:

That Jimmy Townsend – he and the job were made for each other. (J. Wain)

Shuningdek, tavnologiya qofiya va ritmni vujudga keltirishda xalq qo‘shiq-lari, balladalar va bolalar she‘riyatida keng qo‘llaniladi.

Sintaktik tavnologiya turlari ichida atoqli ot va kishilik olmoshi vositasida ifodalangan ega gap bo‘lagining takrorlanishi orqali namoyon bo‘ladigan tavnologiya turi eng keng tarqalgan hisoblanadi.

Emfatik konstruksiyalar ham sintaktik sathdagi uslubiy-ifodaviy vositalar orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Emfatik konstruksiyalar gap bo‘laklaridan birining ma‘nosini intensivikasiyasini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bunday konstruksiyalarning stilistik potentsiali ancha yuqori. Emfatik konstruksiya yordamida kesimdan tashqari istalgan gap bo‘lagini mantiqan ajratib ko‘rsatish mumkin:

It is not every day I get a chance to get out to woods. (D. Carter)

It is blood they make their profits of.

Sintaktik sathdagi keyingi uslubiy-ifodaviy vosita – kirish gaplar ham turli stilistik effektlarni namoyon etadi. Ular ma‘lum bir gap tarkibiga kiritilar ekan, grammatik jihatdan mustaqil gap hisoblanadi. Yozma nutqda kiritma gaplar bosh gapdan turli grafik belgilar – qavs, tire, ba‘zan vergul vositasida ajratib ko‘rsatilsa, og‘zaki nutqda esa o‘zi o‘rin egallagan gapga nisbatan kuchliroq intonatsiya bilan ajratib talaffuz etiladi. Stilistik jihatdan kiritma gaplar, asosan, gap detallarini xarakterlash, gapga yorqinlik baxsh etish vazifalarini bajaradi:

And sometimes with the sensation a cat must feel when it purrs, he would become conscious that Megan’s eyes – those dew-grey eyes – were fixed on him with a sort of lingering soft look. (J. Galsworthy)

Bundan tashqari, kiritma gap ifoda etilayotgan mazmuni ta‘kidlab ko‘rsatish kabi uslubiy-ifodaviy funksiyani ham bajaradi:

They had not seen – no-one could see – her distress, not even her grandfather. (J. Galsworthy)

Shuningdek, bunday gaplar o‘zi o‘rin olgan asosiy gapga nisbatan so‘zlovchi tomonidan qilingan baholash ma‘nosini ham ochib beradi:

That phrase represented, I think, his deepest research into the meaning of life. (J. Galsworthy)

Boshlang‘ich model komponentlarining tartibini o‘zgartirish bilan bog‘liq ifodaviy vositalarga inversiya, gap bo‘laklarining distantligi va ilova konstruksiyalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin [52, 93-98].

Inversiya (inglizcha “inversion” – “o‘zgartirish”, “ters o‘girish”) – gapda sintaktik birliklarning normativ ketma-ketligining buzilishidir. Asosan, tilshunos olimlar ikki xil inversiya – grammatik va stilistik inversiya mavjudligini ta‘kidlaydilar. Grammatik inversiya ingliz tilida so‘roq va inkor-so‘roq gap tuzilishida namoyon bo‘ladi, ya‘ni so‘roq gap tuzilishida yordamchi fe‘l gap egasidan oldingi o‘rindan joy oladi:

Does it surprise you?

What are you doing here?

Can't you put it off?

Stilistik inversiya esa gapdagi ma'lum komponentni ajratib ko'rsatish maqsadida gap tarkibiy qismlarini o'zgartirishni taqozo etadi. Lekin gap tarkibiy qismlarini o'zgartirishning ham o'z aniq qoidasi mavjud bo'lib, istalgan gap bo'lagini istalgan o'ringa qo'yishimiz mumkin emas. Inversiyaga uchrayotgan gap bo'laklari o'zaro sintaktik bog'langan bo'lishi zarur. Gap bo'laklari quyidagi ravishda inversiyaga uchraydi: kesim gap egasiga nisbatan, to'ldiruvchi kesimga nisbatan, predikativ bog'lamaga nisbatan o'z o'rnini o'zgartirishi mumkin. Inversiyaning bu turi gapning semantik markazi – remani ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Inversiya shaklan to'liq va qisman inversiya kabi turlarga bo'linadi. To'liq inversiyada inversiyaga uchragan gap bo'lagining barcha tarkibiy qismlari o'zi bog'lanib kelgan gap bo'lagiga nisbatan joylashuvini o'zgartiradi:

From behind me came *Andrew's voice*.

Qisman inversiyada esa inversiyaga uchragan gap bo'lagi tarkibiy qismlaridan birigina o'zi bog'lanib kelgan gap bo'lagiga nisbatan joylashuv o'rnini o'zgartiradi:

To his orderly he was at first cold and indifferent.

Gap bo'laklari tartibining o'zgarishi bilan bog'liq keyingi sintaktik uslubiy vosita – bu distantlik bo'lib, u gapda mantiqan o'zaro bog'langan gap bo'laklarining bir-biridan distant (uzoq o'rinda) joylashishi bilan xarakterlanadi. Misol uchun quyidagi gapda aniqlovchili sintaktik strukturaning uzilishi va aniqlovchilarning ketma-ketligining o'zgarishi yaqqol namoyon bo'lmoqda:

There was a world of anticipation in her voice, and of confidence too, as she walked past me onto the terrace. (D. du Maurier)

Sintaktik sathdagi keyingi uslubiy – ifodaviy vosita ilova konstruksiyalari hisoblanadi. Ilovali elementlar ilova qurilma tarkibida bajarib kelayotgan funksiyalari bilan bir-birlariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlarida takrorlabgina qolmasdan, balki yangi xususiyatlar bilan bir-birlarini boyitib, kengaytirib boradi. Bu holni parallel birikishga moslashgan ushbu ilovalari elementlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Chunki, bu ilovalari elementlar quyidagi o'zlariga xos xususiyatga ega: birinchidan, misolda keltirilgan ilovalari elementning yetakchi komponenti, ilovalari elementning o'zi takrorlanish prinsipi bilan hosil bo'ladi va so'ng unga tobe bo'lgan qismlar bilan kengaytiriladi; u yoki bu gap bo'lagining takrorlanib kelishi bu uslubiy hodisadir, chunki yozuvchi kitobxonning diqqat e'tiborini tasvirlayotgan voqea-hodisaga yana bir bor qaratish maqsadida uni takrorlaydi, takrorlanuvchi komponent doimo mantiqiy urg'u oladi, natijada uning ta'sirchanligi, voqeiyli oshadi:

Riedl had disregarded the offered chair; he added; she died at birth. I just came to tell you, in case you do not know it. It's been a long time. *Over a year*.

Bundan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, sintaktik sathda uchraydigan uslubiy – ifodaviy vositalat xilma-xil bo‘lib, har birining o‘z semantik-strukturaviy, stilistik – kommunikativ xususiyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ильиш Б.А. Современный английский язык. - М., 1948. - 347с.
2. Иванова И.П., В.В.Бурлаков, Г.Г.Почепцов. Теоретическая грамматика современного английского языка. -М.: Высшая школа, 1987. - 284с.
3. Иванилова Н.Е. Структурно-семантические особенности эллиптических предложений во французском и английском языках: Автореф.дис.канд.фил.наук. - Нальчик, 2008. - 165с.
4. Камагина И. В. Простые эллиптические предложения: структура, семантика, стилистика: дисс. канд. фил. наук. -М. 2009. -174 с.
5. Кириллова А. В. К вопросу о типах эллиптических предложений в английском языке. Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. – 2015. -163-169с.
6. Косоножкина Л. В. Эллиптические предложения – норма речи. Актуальные проблемы филологии и методики преподавания: межвузовский сб. – Ростов-на-Дону, 2001. – 130-133 с.
7. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. - Л., 1960. - 175с.